

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Neyron qo‘zg‘aluvchanlik disregulyatsiyasi sharoitida miya hujayralarini himoya qilish strategiyasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - neyrometabolik stressning asosiy mexanizmlarini — neyronal giperqo‘zg‘aluvchanlik va energiya disbalansini takrorlay oladigan modelni yaratish. - miya hujayralarining giperaktivatsiya va energiya yuklanishlariga bardoshlilikini ta‘minlaydigan molekulyar nishonlar va signal yo‘llarini aniqlash (potensial terapevtik nomzodlarni tanlash uchun). - neyrotektor vositalar va potensial dori vositalarining samaradorligini baholash uchun eksperimental platformani yaratish. - miya hujayralarida mitoxondrial funksiyalar, redoks-balans va ion gomeostazini barqarorlashtirishga yo‘naltirilgan strategiyani ishlab chiqish Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi tibbiyot muassasalarida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Sog‘liqni saqlash vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sog‘liqni saqlash vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.